

Suhrob SurKjatalievni do'stlari hazillashib Zurab Sereteli deb atashardi. Suhrob chindan ham haykaltarosh esa-da, ammo Zurab Sereteli kabi itu-bitga tanish emas, balki Moskva sanKjat davralarida o'ziga xos "zodagonlar dahosi" sharafiga ega edi. Uning Moskvaga kelganiga ham biror 40-45 yil bo'lib qolgan, shuning uchun o'zini baKjzan "Anjanning Ko'tanarig'idan" emas, balki mana shu poytaxtda tug'ilib, loyi shu erdan olingan haykalga o'xshatardi.

Nozik sanKjatlarning bari qo'shib-chatish, to'qish haqida emasmi, faqat haykaltaroshlik buyuk Mikelandjeloning taKjbiricha ayrish-ajratishga qurilgan: haykal yasash bu shaklsiz bir bo'lak moddadan keraksiz qismini ayrib-ajratib tashlashdir. Bora-bora ushbu odat-tabiati ich-ichingga singib ketar ekan: hayotga xuddi o'sha ayirish-ajratish, saralash ko'zi bilan qaray boshlar ekansan. Puch, zoe, behuda narsalarni ko'ngling sig'dirmay qolar ekan, hamma narsaning o'zagi, danagi, mag'ziga etmoqchi bo'lib qolarkansan. Mayli, bunisi ham bir feKjl-da...

Shundan bo'lsa kerak, Suhrobni uncha-muncha taniganlar uni takkaburdan olib qo'polga qadar taKjriflashar, va faqat uning siyrak mahramlari boyagi taKjrif biroz yuzaki ekanligini bilishardi. Lekin, keling, biz ham jilla qursa shu hikoyamiz ko'lamida Mikelandjelo qoidasiga sodiq bo'lib, puchanak yo'llarga kirmaylik-da, gapning indallosiga yopishaylik.

So'nggi paytlar Moskvaga boshqa kelgindilar qatori qashshoqlashgan o'zbeklari tojiklar, qirg'izlari ozariylar, xullasi bizning nochoru miskin elat o'rda-o'rda bo'lib bosib kelishmadimi... Bir paytlar, Sho'rolar davrida bularni uchratish uchun atayin yo Qozon vokzaliga, yo VDNXga borishga to'g'ri kelardi. Bir kuni esa Kremli saroyida balet tomoshasining tanaffusida tomoshabinlar orasida Denov-penovdan adashib kelib qolgan bir nojo'ya kolxozchini qo'rib qolib, Suhrob-haykaltarosh allamahalgacha o'ziga kelolmay, allaqanday hislar tug'yonida o'zining mashhur "Pieta" "GirKjya"sini yasagan emasmi... U haykalda xochdan olingan Iso-payg'ambar ustida uning onasi Bibi-Maryamu, maKjshuqasi Mariya Magdalinalar yig'lab turishar, biroq bularning shakli qishloqi ayollarni eslatib, modda esa oqqan xamirdek chakkilabmi, sim-sim yig'labmi yotgan joydan biroz chekada boyagi kolxozchisimon bir kuzatuvchi turardi...

Endi esa hamqishloqlar to'da-to'da yopirilib, mo'ru-malax omborning har bir burchagini bosganidek, Moskvaning har bir hovlisiyu uyidan shumshayib mo'ralab o'tirishar ekan, Suhrob-haykaltarosh bir tur o'zini yo'qotgan edi. G'alati bir qizg'onchmi uyg'onardi uning ko'nglida, avvaliga o'zini kimsan-kim Chingizxonu Amir Temurlarning kamnamoyu antiqa avlodidan deb bilgan Suhrob endi kasodga uchragan chaqa tangadek seza boshladi o'zini. Endi o'z-o'zini "o'zbek" deb atashmi, yo onda-sonda bazmuziyofatlarga gul do'ppisini kiyib borish bir hol uyatli bo'lib qoldi.

Unday desak, Suhrobning injuyi daqiyq jo'ralari maishiy yumushlardan nolib suhbatlarida albatta "shaharni bedarvoza qilib yuborgan kelgindilardan" shikoyat etishar ekan, Suhrobgaga yuzlana: "sen o'zimiznikisanu" degandek, undan ham hamdardligu hamrozlik kutishar edi. Shunday mahallari Suhrob vaqti-bevaqt qizishib ham ketardi, rost, uning achchig'i ko'pincha o'sha gashtaklarda emas, ulardan qaytgach, ko'lkadek yuvvosh rus xotini MashenKjkaga nasib etardi. "Qara, derdi tutaqib Suhrob, axir bular yaxshi kunidan kelishmagan-ku bu erga! Agar uylarida hayot farovon bo'lsaydi, oilalarini tashlab, issiq yurtlariyu, meva-chevalarini tashlab, bu qahraton sovuqlarga kelishu, it yotib mirza turishlariga balo bormi?! Anavi kuni "Trud"da o'qidim, uylarning podvallarida kartondan yotoq yasab, yuz-yuzlab yashashar emish... Yana bir joyda hovli-joyini sotgan bir o'ris o'sha hovli-joyi bilan birga to'rtta tovuq, ikkita g'oz, eski-tuski uy anjomiga qo'shib bir qarol o'zbekini ham sotib ketibdi... Tasavvur qilgina! Yigirma birinchi asr boshida-ya!..."

Bechora MashenKjka faqat boshini chayqab o'tirar, biroq durustki, qizishganida haykaltaroshning qoni miyasiga emas, qo'liga urar ekan, bu gaplar ustida Suhrob qo'liga bir bo'lak ganchmi, juda bo'lmaganida yaxshi pishmagan nonning xamirsimon mag'zini olib, butun jon-jahdi bilan ularni ezg'ilashgayu, o'zigayu, o'z qahriga ayon allaqanday shakllarni yasashga tushardi...

Suhrob-haykaltarosh ishga kirishdi deguncha, esimga boyagi qoida tushib: illo, to'qishu-chatishga borib, bu so'zlardan Suhrob bir navKj el qayg'usidagi millatchi ekan degan farazga bora ko'rmang, demoqchiman. Uning o'zbekligi boya aytganimdek gul do'ppisini yilda bir kiyishdanu, ustaxonasida kelgan-ketgan mehmon oldiga yozgan bir parcha atlas dasturxonida bir siqim qora mayiz solingan sopol piyolasidan ortiqcha emasdi. Agarda bundan-da keskirroq isbot kerak ekan, uning onda-sonda menga "o'zbekcha" yozgan xatmi yo nomachalaridan biror ko'chirma keltirishimning o'zi kifoya.

"Assalom aleykum dustim! Men Toirnig loixa xakida Menda tallangan xudojniklar masalKjasi shubxam bor edi. Bazi ulardan Rashidov rejim bilan aralashgan. Xozirgina vafo etgan Konchalovskiyning so'zi xaelimga kolyapti: xudojniklar katta elgonga katnashishi mumkin emas. Boishka tomondan ularning ibadiy sifati nixotanam ulug' mi?"

Xudo haqqi, buni kulish yo mazax etish uchun emas, jo'ngina dalil sifatida keltirdim xolos. YaKjni, Suhrobning o'zbekligi qariyb yarim asrlik Moskva hayotida ishqalana-ishqalana, hatto so'nggi nuqta ismu-sharifining, boya aytmish, salkam Zurab Sereteliga evrilishi qadar borib qolgan ahvolda edi.

Ana endi bu qisqa debochadan so'ng hikoyaning o'zini eshiting.

Qish kunlarining birida Suhrobning Kievskaya Naberejnayadagi ustaxonasida telefon jiringlab qoldi. Xayriyat, xotini MashenKjka ekan. "Tinchlikmi?" deb so'rasa, "Hozirgina ona qishlog'ingdan birov telefon qildi, seni qidiraypti. Kechqurun keladi deyishimga qo'ymasdan, qo'lida telefoni yo'qmi, o'ta zarur ishim bor, deb qistayapti. Yana besh minutdan keyin telefon qiladi, unga nima deyin deb qo'ng'iroq qilyapman", deydi. Gaping ochig'i, uncha-muncha yirik ish qilayotgani yo'q edi o'sha payt Suhrob, birov uni, neki bo'lmasin, ishdan qo'yishayotgani, odatdagidek, yoqmadi unga. "Kim ekan o'zi, telefon qilgan, ismini so'ramadingmi?" desa, MashenKjka tabiiy iltifoti ila: "Yo'q, xayolingma kelmaypti. Biroq u hozir qayta telefon qiladi, shunda so'rab olarman.

Tinchlikmikan o'zi u erda?" deb so'raydi eridan yana. "Ha, qiziqmisan, ular bilan men emas, o'zing gaplashgan bo'lsang, u erda tinchlik-notinchlikni men bilamanmi, yo senmi?" deb qizishib berdi Suhrob. "Yo'q, shunchaki, kuyukyapman-da..." deb javob berar ekan MashenKjka, shunda Suhrob: "Telefon qilishsa, mayli ustaxona nomerini berginu, bu nomer ustaxonamning nomeri ekanini aytma. Hozir muvaqqat bir joyda edi, telefoni mana shu, deb bergin", deb tayinladi.

Boyada g'imirsilanib qilayotgan mayda-chuyda ishi ham ketdi qo'lidan bu suhbatdan keyin. Yarim yoziq qiyiq dastarxonchasidagi sopol idishchadan bir chimdim qora mayiz olganicha o'yg'a toldi Suhrob. Kim bo'ldi ekan, telefon qilgan kishi? Kimi qolgan edi o'zi qishloqda? Onasi uning bolaligida o'lgach, otasi qamalishidan oldin boshqa bir xotinga uylanib, undan ikkitami-uchta bola ko'rgandi. Suhrob voyaga etib harbiy xizmatu, undan so'ng umrbod Moskvaga o'qishu yashash uchun ketgach, otasi qamalib ketganiniyu, qamoqlarda yo'q bo'lib ketganini o'gay onasining xatlaridan bilgan edi. Biroq o'gay onasini onayu, o'gay uka-singillarini qardosh bilib ulardan xabar olgani yo'q. Yozlari cho'li ariqlarida suv quriganidek, oradagi xatlar ham uzildi, Suhrob o'z qishlog'iga qaytmagach, qishloqdan uni so'rab kelganlar ham bo'lmadi.

Mana endi esa bu qo'ng'iroq...

Shamoyilsiz bu o'ylardan ko'ngli g'ulg'ulaga to'lib borar ekan, bir mahal telefon jing'irlab qoldi. "Allo!" dedi, odatdagidan

yo'g'onroq ovozdah Suhrob. "Suhropokamlani chaqirivoriyng!" deb, betakalluf buyruq bergandek bo'ldi tallafuzi norus bo'lgan bu ovoz. Suhrob bir daqiqa sukut saqlar ekan, xuddi birov uni chaqirayotgandek o'yin qildi emas, balki bu qo'pol ovozdah esankirab qoldi chamasi. Baharhol u: "Ha, eshitaman", dedi-da, qaysarligi tutib: "kim bilan gaplashyapman o'zi?" deya, qo'rslikka qo'rslik qildi. Telefondagi ovoz birdaniga mayinlashib: "Somalaykim, tog'ajo'n, ma jiyaniyz Sangiyn bo'laman. Siyniz Farahhi kenja o'g'illari-chi..." "Singlim Farrah?" deb bexosdan beso'naqay o'zbekchaga ko'chdi Suhrob, "qanaqa..." "Bolaluvda realno Faya dirkansizu, o'shani o'g'li-te..." "Ha, Faya... bilaman. Siz qaeda?" "Ma shuding Maskavaga ishka keluvdud, efemesi ushavoldi, zakonniy naezjat qilishvotti, dakimentiynKj yo'g' divotti, shunga o'ziyiz bulaga etip qo'yasizmi, dakazayt qilish keray-te, jiyah diganini..." "Siz qaeda hozir?" "Mana mambu lo'xlagah trupkani beriy"

Shukurki, naryog'dah bir kapitan ruschagah ko'chdi.. Suhrob surishtirib bilsah, boyagah jiyani Sangin yamah bir hamyurti bilan AltufKjevodagah Federal migratsiyah xizmatih bo'limih tarafidah bozordah xujjatsiz tutilib, jarimagah puli yo'qligah tufaylih avvaligah maKjmuriah qamoqqa, keyin esah o'z yurtigah haydalishtaraddudidah ekan. "Mah bo'tgah avtoritetniy qarindoshimmikigah kegamman!" deb, Suhrobning telefoni bilan nomini tumoridah chiqarib tutqazganidah, kapitan har ehtimolgah qarshih bunisini ham tekshirib boqmoqchi bo'lgan ekan. "Agar bu daydilar chindah ham siznikigah kelishgah bo'lsa, biz ularnih qo'yib yuborishgah tayyormiz, biroq o'zingiz bo'limgah kelib tilxat yozib ketishingiz lozim" dedi so'ngidah kapitan, vah nedandir bu buyruqqa bo'ysunibmi, yo boshqah junbushdanhmi, umridah ko'rmaganu bilmagan jiyahni qamoqdan qutqarish uchun, Suhrob o'n daqiqa so'ngrah "Kievskayah" metrosigah tushib borib, Moskvaning qoq chekasidagah AltufKjevo tomondan yo'l oldi...

Suhrob metrodah ayniqsah Moskvaning yobonlarigah chiqishnih ko'pam xush ko'rmasdi. So'nggah paytlar metrodah yurish xavfli bo'lib qoldi. Yo'q, qalang'i-qasang'i taqirboshlar mo'ysafed Suhrobni tutib urishmas ediyu, biroq uni namat qalpog'idanu qalin soqolidah bir gurjii, bir chechen bilib, yo to'rt atrofnih mensimay bo'ralab so'kishardi, yo yoshroq bo'lganlarih "Bin-Lodin" deb mazax qilishardi.

Rost, bu safar Moskva qahratonimih bois, u siyraklashgah metrodah eson-omonginah AltufKjevogachah etib bordi, hatto stansiyaning o'zidah sandiraqlagah uchta-to'rttah mast-alast yosh-yalang ham o'zlari bilan o'zlari ovorah bo'lib, unga qarab ham boqishmadi.

Tepagah, er ustigah chiqib borsa, qor biram pag'a-pag'ah yog'yapti-ki, xuddi eng buyuk haykaltarosh er ustidagah maydah-chuydah borliqni o'zining belgisiz ganchih bilan qaytah bosib tashlagudek...

Qor oralab yo'lovchi bir kampirdah yo'l so'ragah Suhrob militsiyah bo'limidagah FMS xonasigah kirib borsa, siyqasah chiqib ketgah bir kapitan o'ngidah burchakgah tiqilib qish chillasidah engilginah triko kiygah ikki mitti yigitchah o'tiribdi. Bulargah o'tkir ko'zih tushishih bilanoq Suhrob biridah darrov o'z otasining shaklu-shamoyilini tanidi. Ko'zlari nogahon chaqnadi shu on, biroq so'lib o'tirgah bu o'spirinlardan birih birdanigah o'rnidah sapchib, o'zini Suhrobning quchog'igah otdi: "Tog'ajo'n, jon tog'ajo'n, qarang mambu jalah nma qvotti?! Borakansizu, oka!"

Yamah maydah-chuydah zoe qog'ozbozligu kompyuterlargah kiritilgah tilxatlarini itqitayligu, biror soatdah keyin bu ikki junjukkan yurtdoshiyu qondoshnih Suhrob o'z uyigah boshlab kelganigah ko'chaylik. Xotini MashenKjka bularnih qish qahratonidah trikolaridah kirib kelishganini ko'rib sarosimagah tushdi, bir tomondah ona emasmi, ustilarigah po'stinlar berdi, yugurib-elib choy tashidi, biroq yigitchalarning oylab suvu-sovun ko'rmagan muz etlari eriy boshlagach, xonah bo'ylab shu qadard qo'lansah hid tarqalah boshladi-ki, MashenKjkaning nozik didi g'uluvlandi. Buni Suhrob ham sezdi. Aytmoqchi bo'lganim MashenKjka ko'nglidagah bulg'anishnih-dah, qazih hidnih eslatadigah otdekh bu yigitlarning ter bo'yini ham shu topla ilg'adi Suhrob.

Tosh bilan ishlayverganidah yuragih qotadimih haykaltaroshlarning, yo mayin iltifotgah ro'yi-xushih qolmaydimi, ne esah-dah Suhrob: "Choylarnih ichib bo'ldinglarmi? Bu po'stinlarnih o'stingizgah tashlang-dah, otlaning bir joygah oborib qo'yamah, o'sha erdah yotasiz. Maslahatnih esah ertalab qilamiz!" deb yigitchalarnih qistay boshladi.

O'sha kechasih Suhrob o'z jiyaniyu uning jo'rasini o'z ustaxonasigah oborib, yotoq o'rnigah ikkita kursiyu, ko'rpassigah erdah yotgah serkah terisini tashlab, o'zi uyigah eng so'nggah metro bilan tun soat birlardah qaytib keldi. MashenKjka hali ham uxlamay, uning kelishini poylab o'tirardi.

Boshqah payt ular orasidah kechgah taxir suhbatu, kechasih bilan yonboshdanh yonboshgah ag'darilgah Suhrobning bedor o'ylarini erinmay yozgah bo'lar edim, biroq bo'ynimgah tuzoqdek tashlangan qidah haykaltaroshlik uslubi meni maydah-chuydah o'nqir-cho'nqirlargah chalg'imaslikgah chorlaydi.

Ertalab uyqusizlikdah lanj Suhrob qishkih havodah biroz o'zighah kelib, ustaxonasigah aniq qaror bilan kirib bordi. Kirib bordiyu, o'z qarorih to'g'riligigah iqror bo'ldi: bu ikki bedov toy hamma yoqni ag'dar-to'ntar qilib tashlashgah kechasih ko'rpa qidirishganhmi, yo sahardah samovarmi, ne ahamiyah, kitoblar haykallarining qo'llarigah tashlangan, haykal boshlar kitob jovonlarigah qo'ndirilgah, bu ham kam esah, qiyiq dasturxonning o'rtasidah to'rtgah bo'linib sopol idishchaning chil-parchil bo'laklarih qorah mayizih aralash ag'darilib yotardi. Bunisih hali Suhrob ko'zih bilan qarab faqat shakllarnih aytyapman, anqigah hidu, bepisand xurrakdanh gap yuritganimchah yo'q...

Shudah Suhrobning miyasigamih, tiligah tuyqusdanh o'smirligidah berih qo'llamagan so'kinchlar otildi: "He, oneyni..." deb hayqirgisi keldi, biroq burchakdah dong qotgah bu ikki jussachaning ustigah bostirib borarkan, "kusfurush" bilan "qiztaloq" farqidah dovdirab, axir: "He, qistalog'lah, tur!" deb o'shqirishgah o'shqirdiyu, hayajonidah ovozi bo'g'ilib, qisilib, o'z qulog'igah allaqanday shallaqih chiyillashdey tuyuldi. "Shaltog'inggah bulanib yoturasanmi?!" bolaligidah keldi sado.

Anavi ikki dayus istar-istamah yondah yongah ag'darilishdih-dah, birih: "Chvo naxu aroshKj, chimo?!" deb g'udrandi-dah, yamah uyqugah ketdi. Shudah Suhrob ikki qo'lih bilan ikkisining ustidah ikki po'stinni yulib tashladi-dah: "Tur-e, oneyniski!" deb qichqirdi.

Sovuqdash seskanib uyg'ongah ikkisi uyqu arimagan ko'zlarini mushtlarih bilan uqalab: "E, sizmuvdiz, oka, shunnog' dimiysizmi?" deya, turishdi. "Mahah senikih ikki ming pul, Kazanskiy vokzalah borasiz, uygah ketasiz!" Pulnih ko'rgach ikkalah yigitchah muloyimlashdi: "Xo'p didivu, kiyinsov bo'ladimih, oka?!" "Davay, tez!"

Xullasih, bular bilan choy-poy ham qilgani yo'q Suhrob, puligah ilovan qo'llarigah ikki shotland sviterini topshirgach, eshikkachah bularnih kuzatib bordi-dah, eshiknih ketlaridah yopgach, jim-jit yolg'izlikdah: "To'g'ri qildimmikan?" degah gumongah bordi. Kim bilsin, bo'lari bo'ldi. Har holdah hamqishloqlarigah sovg'ah-salom, tortiq-tarag'ay berib yuborsah bo'larmidih...

Kun boshidah buzulgah edi. Shu tufaylih qolgani ham bebarakah o'tah boshladi: timirskilanib Suhrob bulardan qolgah ola-gastonnih yig'ishtirgandek bo'ldi, ustaxonasini saranjomladih bir navKj, kitoblarnih qaytah jovongah tizdi, haykalchalarning changini artdi, boyagah to'rttah sopolnih chegalashgah urundi, o'rnigah to'rt sopol beshgah bo'lindi. Unday desah, bu yoqdash yuragih chil-parchil bo'lib yotibdiyu...

O'z-o'zini muruvvatsizlikdah pinhona ayblab, o'z-o'zini eb yotganidah, telefon jiringladi. Olsa jiyani Sangin. "Oka, deydi, sziyam xet qvordiyu, toka bo'ttah bilet zakonniy yo'g'aka. Bratanlah samolo'tkah chqarvoriyluv diyishvotti. Atvechat qlovuzah diyishvotti..."

Toka jhcha kapista soqqada kerov bo'votti... Nma qiliynu, oka?" Haykaltaroshlarning qo'liyam, aqliyam keskir bo'ladi emasmi, Suhrob ortiqcha mijg'ovlanmasdan: "Kiev vokzali sog'ati bilasiz, ke, pul tayyor!" deb buyurdi. Pul ketsa ketsin, ruh tinchligi ketmasin ekan. Xotinidan har oilaviy ehtimolga qarshi yashirib qo'ygan roppa-rosa ming dollar ichidan to'rt yuzini olib, Suhrob yana qor ko'chaga chiqdi.

Kiev vokzalining minorasi tagida yarim soatcha kutib, ikki yigitchaga xufyona to'rtyuz dollar ("uch yuzi biletga, yuziga qishloqqa u-bu narsa olasan" -deya) topshirdi-da, ko'ngli to'lsa-da, orqasiga qayta-qayta alanglab, yana ustaxonasiga qaytdi. Qiziq, yo'lida uchraganlarning bvri uning ko'ziga o'zbek bo'lib ko'rinar, yo chindan ham shundaymidi o'zi? Ustaxonasiga qaytgach, Suhrob o'zining soat ostidagi beso'naqay xatti-harakatlarini eslar ekan, ko'z oldida yana o'sha ikki bo'z bola gavdalandi-da, Suhrob birdaniga labini tishladi. Jiyaning egnida ertalab berilgan shotland sviteri bor esa-da, panarokda turgan jo'rasi allaqanday juldur kastimda edi. Kastim tagida esa o'sha-o'sha yag'ir triko...

Bularning baridan alahsish uchun Suhrob loy qordi, ox deganda o'zining bugungi beqarorligidan bir narsa undirmoqchi bo'ldi, qayda deysiz, qo'li biron shaklga bormadi, loy qo'lida qotib, uni ham oqibat chil-parchil uvalashga to'g'ri keldi.

Piyoz archganingda birinchi qat po'choqdan chuqurroq olsangoq, ko'zingdan yosh sirqiraganidek, allaqanday yig'loqi kayfiyatda edi Suhrob. To'g'ri qildimi boshidan, yo yigitchalarni kelgan eriga haydashdan ko'ra ularga el qatori ish-pish topib berish kerakmidi? Axir do'stlari bo'lsa bor, istagan eriga qo'li etadi, jilla qursa SanKjat uyiga qorovul-porovulmi, yo elektrik-pelektrik qilib joylashtirib qo'ysa ham bo'lardiyu... Moskvada o'zbek qorovuli kammi, yana bitta-ikkita qo'shilsa...

Qiziq, haykaltarosh xalqi odatda armonu-pushaymnlardan yiroq bo'ladi: toshning bir parchasi uchdimi uni joyiga qaytarolmaysan, shaklni yangidan moslash qoladi xolos. Lekin nega u bir yoshga etganida kundalik odatlariga xilof qayta-qayta kalovlanib o'tiribdi? Axir o'limga yo do'zahga jo'natgani yo'q-ku jiyani o'z ona yurtiga, vataniga jo'natdi! Baribir ko'nglidagi bu loyqalik tarqagani yo'q, baribir ko'ngil sopolini ham bir-biriga chegalolmay qoldi Suhrob... "E, shoir bo'lib ket-a!" deb, so'nggi xayoliga kulib qo'ydi u qv birdaniga boyagi qotgan burda-surda loylardan nima yasashini anglagandek bo'ldi...

Qishning erta kechi ham kira boshladi. Boyagi bo'laklarni ulashga nihoyat yangi loy qorimoqchi bo'lib turganida yana telefon jiringladi. "Somalaykim oka, ayrapo'ttan tpon qomman. Bo'tta bittasi atvichat evtvotti bu soqqanga diydi indiniga belat bo, blya, bugun zakonniy ketmoxchi bo'sang, diydi, o'zim chqarvorama, axuet qmasta yana kapustaynda iikiyuz tasha, dvotti... Nma qlovuza, oka? Bratanimi sog'at teyiga jo'naturiyimi? Paashrat qvoriyn, oka, sovop bo'lyadi..."

Suhrob javob bermasdan go'shakni tashladi-da, qo'llari hanuz loy, o'ylanib qoldi. Qo'llari mayliya, go'shakka ham loy tegib, u endi tinimsiz chiyillar edi. Go'shakni yana olib, zarda bilan telefonga urgan edi, loylari har tarafga sochilib, darz ketgan go'shak ham jimidi.

Qo'lini apil-tapil yuvib, yana boyagi xazinasidan ikki yuz dollar oldi-da, bir zumga o'ylanib unga yana ikki yuz qo'shdiyu, ustiga po'stinini tashlaganicha, qayta qorburok ko'chaga chiqdi. Qiziq, bu safar kutgani ham yo'q, soat tagida pisibroq, bir o'zbek turardi. Bunising ham turqi Suhrobg ko'pam yoqqani yo'q. Yaqinroq kelsa qish havosi emasmi, undan arzon pivo hidi anqib turibdi. Teri kurtkasining ostidan esa Suhrobning ertalabki shotland sviteri ko'ringandek...

"San kim?" deb, na salom, na alik qilib so'radi Suhrob. "Somalaykim, oka, jiyaniyz yuvoruvdi. Bablo'dan jichcha beradi, duvdi..."

"Ey, bala, buni qaerga olding?" Suhrob qo'lini kurtka ostidai sviterga uzatgan edi, yigitcha chap berib, Suhrobning qattiq panjalari uning teri kurtkasiga yopishdi. "O', blya, oka nma qvossiz o'zi? Buni kojinkya diydi, yirtvorasizu, nma bespredelmi sizga? Munga axuenni pul chochkammiz..." Bir zumga Suhrob, po'chog' archgandek, uning kurtkasini yulib tashlashga hozir edi, kasbiy odatlari junbushidan qat ostidan qat qidirib bu yigitchaning yalang'och mag'ziga etmoqchidek edi. Biroq shu payt panada turgan melisaning gulduros ovozi ishga aralashdi: "VC< chto eto, yoptatKj, zdesKj besporyadok razvodite?! Ponaexali tut, chernojopec!" [1]

Suhrob umrida melisa bilan yuzma-yuz bunqangi holatda yo'liqmagan edi, shuning uchun ham u o'zini yo'qotib qo'ydi. "Ya vot tut, tovariC%o serjant, rodstvennikam xotel denKjgi peredatKj" "TovariC%o starshiy serjant!" [2] deb to'g'irladi uning xatosini melisa. "DenKjgi govorishKj, kakie denKjgi?!" "Da vot, bratishka uletaet v Tashkent, xotel peredatKj..." deb, Suhrob cho'ntagidan to'rt yuz dollarini chiqazdi. "Ax, tC<, yobtatKj, tak tC< tut eC%oyo kontrabandoy promC<shlyaeshKj?! NebosKj za anashu platishKj?!" [3] deb, katta serjant o'dag'aylab ketganida, Suhrob qay ahvolga tushganini anglab etdi Hozir hoynahoy mana bu shumshoq o'zbekning cho'ntagidan nasha-pasha topiladigan bo'lsa bormi, rasvosi chiqdi Suhrobning. "Oka, lo'x bo'maynKj, yuztasini qstriynKj..." deb imladi o'zbekchasiga anovi isqirt. Umrida birovga pora bermagan Suhrob bir zumga bo'kib, allambalo bexushlikda qo'lidagi puldan yuzini melisaga uzatdi. "TC< chto, yobtatKj, pravooxranitelKjnC<e organC< na vzyatku pri ispolnenii slujebnC<x obyazannostey Da tC< znaeshKj, chto tebe za eto budet?!" [4] deb, melisa jazavasiga tushganida, anavi o'zbek Suhrobning qo'lidan bor pulini olib, melisani qo'ltigidan ushladi-da: "Ticho nachaynik, davay baklanim kak svoysvoy" [5] deb, chekaga tortdi. Melisa g'udurlab-g'udurlab, uning ketidan devor orqasiga tisarildi.

Shu top Suhrob qiziq ahvolda qoldi. Tuyqus tuyg'u unga: "Ket!" dedi, biroq u qochishdan uyaldi. Undan keyin pul masalasi hal bo'ldimikan? Unday desa, barining shaltog'i chiqib bo'ldi. Anavi o'zbek ham melisa bilan bir bo'lsa-ya?! Yaxshisi ketgani maKjql. Bu fikrda Suhrob soat tagidan jila boshladi. G'ira-shira quyuqlasha boshlagan, chiroqlar esa hanuz yoqilmagan, yana yigirma-o'ttiz qadamdan keyin yo'lovchilarga aralashib ketadi. Endigina shunday deb, qadamlarini tezlashtirgan edi, ketidan: "O'o'v, oka, qaqq ketvossiz?" degan o'zbekcha hayqiriq uzaldi. Suhrob taqqa to'xtadi. Nazdida endi melisa tugul, Kiev vokzali atrofidagi mo'l o'zbeklar u tomon yopirilishib keladigandek... Yo'q, boyagi chalamast yigitchaning o'zi unga yaqinlashdi xolos: "Oka, unaqamaste, sizam atvichat qliynKj, anuv pidaras musarga ikkiyuzzi berduv, ukayz yana bazar qbyurmasi..." Suhrob bosh irg'itdi-da, xayr-maKjzursiz o'zini ko'm-ko'k qorgayu, qor oralab tushayotgan qorong'uga urdi...

Ustaxonaga qaytgach ancha paytgacha uning qo'llariyu yuragi titradi, muzlatqichdan negadir yarimtalab qolgan aroqni olib temir krujkaga quydi-da, ikki ho'plamda gazzakisiz otdi. Ichi qiziy boshladi. Shu payt uni seskantirib yana jing'iroq jiringladi. Telefon emas, badtari eshik jing'irog'i. "Melisamikan?!" deb cho'chidi avvaliga Suhrob, birov melisa odatda eshikka qoqadi emasmi, dedi unga shoshqin ongi. "Yana pulga kelishdimi?" deb havotirlandi u ketin. Biroq ikkinchi jing'iroq tarabchan emas, baroz uzrnok yangraganidan: "Nima bo'lsa bo'ldi!" deya, u vo'lida temir krujkasiniyu yarim shisha arog'ini tutganicha, eshikka yuzlandi. Ochsa ikki notanish inson. Bir erkagu, bir ayol. Erkagi: "Mister Suhrab?" deb so'ragach, Suhrobning esankiragan esiga bu soatga NKjyu-Yorkning Metropolitan muzeyidan aziz mehmon kelishi kerakligi tushdi. Esiga tushdiyu, qo'lida temir krujkayu yarim shisha aroq, Suhrob ushbu muhtaram juftga na kiring deyishini bilmay, na salom uchun qo'l uzatolmay, dovdirab qoldi. Anavilar esa amerikaliklar emasmi, sharaqlab kulishdi-da, Suhrobning elkasiga qoqqanicha, inglizchasiga: "Ilhom parisini ushlabsanmi?" qabilida bir narsani chug'urlashib, ortiqcha takallufsiz ichkariga kirib kelaverishdi...

Chog'imda yana adabiy yo'llarga chalg'ib ketdim. Aytmabmidim haykaltaroshlardan o'rnak olib, hodisalarning po'stu-po'chog'iga alahsimasdan, mag'zini chaqaman deb. Shu bois Suhrob anchadan beri kutib yurgan o'sha ardoqli juft bilan bo'lgan uzun suhbatning jimjimalarini aytib o'tirmay-da, faqat Suhrob ustaxonasidagi aroq hidiyu anavi ikki sayoqdan qolgan besaranjomlikni qanchalik xaspo'shlashga harakat qilmasin, amerikaliklar shunchalik uni yupatisharu, "rus ruhining unga ham yuqqanligini" allaqanday g'arbona takabburlik bilan kechirishgandek bo'lishganini aytay... Yoki, mayli-da, kechasi soat o'n birlarda bularni kuzatib, Suhrob o'z uyiga, mo'mina MashenKjkaning oldiga qaytib kelganiga to'g'ri o'ta qolay.

MashenKjkaga kun davomida boshidan o'tganlarini gapirib o'tirgani yo'q, jo'ngina: "Jiyaningni jo'natdingmi?" savoliga: "Jo'natdim", deb qo'yaqoldi-da, ko'proq amerikalik mehmonlar hikoyasini qildi. Ular bilan bo'lgan uzun suhbatning jimjimalarini so'zlar ekan, Suhrob bexosdan o'zining ham anavilardek bir navKj "gastarbayerterligiyu", tilanchiligini sezgandek bo'ldi. Axir bu juftga yoqib, o'z mehnatini qimmatroq bahoda sotishga tirishmadimi u? Ular hozirgi kunda sanKjatga pul ajratilmayotganiga gapni burishsa, Suhrob o'zining noyobligini pesh qilmadimi? Bu pinhoniy tilanchilikda anavi o'zbeklardan qaeri ortiq ekan uning?!

Xaridorining o'ris emas, amerikalik bo'lganimi xolos?!

Bu o'ylarda yana allamahalgacha uxlamay, ko'rpayu choyshabini do'k-do'k tepib yotdi Suhrob. Lekin bunisi ham bir sira adabiyot...

Ertasi... ertasi hech narsa bo'lgani yo'q. Telefon ham jiringlamadi, melisa ham qidirib kelgani yo'q. Amerikaliklar ham ortiq qorasini ko'rsatmadi. Indinisiga ham kun bo'm-bo'sh o'tdi. Uchinchi kunga borib ustaxona endi yig'ishtirilgan, sopol siniqlariyu bo'sh aroq shishalari axlatga tashlangan, qiyiq atlas dasturxoncha ustida bir hovuch mayiz to'ntarilgan gul do'ppi ichida qorayib turardi. Suhrob esa xazinasidagi qolgan ikki yuz dollarini olib, uni shu kecha MashenKjkaga sovg'a-salom uchun topshirishga shaylangan, hozircha esa o'zining tinchlana boshlagan ko'ngliga quloq tutib, yangi haykal loyihagini xayolida pishitar edi. Balki-da "Gastarbayer" deb nomlaydimi uni... Har nechuk...

O'sha kuni kechvurun uyiga qaytib, MashenKjkaga dablurustdan ikki yuz dollarni hadya etgach, ikkisi bir shisha arzanda fransuz sharobini ermak qilib, televizorga tikilib o'tirishar ekan, yangiliklarda shahar melisasi markazda buzilishga rejalangan bir eski uyni o'zlariga mehmonxonayu yotoqxona qilib olgan 68 o'rtaosiyolik noqonuniy migrantni tappa bosganini ko'rsatishdi. Yo'q, bularning orasida Suhrob qancha tikilmasin Sangin jiyani chiqib qolgani yo'q, biroq bu oltmish sakkiz insonning it yotib mirza turishini ko'rgan Suhrobning ko'ngli yana g'ashlikka to'ldi. Kechasi yana uxlayolgani yo'q. Bedorligini o'tkir sharobdan ko'rdi, boyagi suratlardan ko'rdi, MashenKjkaga qilgan riyokorligidan ko'rdi fikri bularning orasida chuvalanib, baribir uyqu bermadi.

Bir paytlar yoshligida, Moskvaga endigina kelgach, o'zi ham it yotmagan erlarda tunab qolganlarini, biroq kunlari bir inson anatomiyasini, bir rasmkashlikni, bir tosh yo'nishu, loy qorish sanKjatlarini mukkasidan tushib o'rganganlarini esladi u. O'ylab boqsa, boyagi aziyatlar bugungi martabaga erishish uchun chekilgan ekan, ammo Suhrob-haykaltaroshning bugungi martabasi uni tosh haykal kabi o'tu-cho'g'dan asrashga qodirmi?! Qayda?! O'zi beqarorlikda o'tu-cho'g' bo'lib yonib yotibdiyu! Yoshligidan hayotning maKjnosini ish ustiga ulug'vor ish bilan o'lchagan Suhrob endi mayda-chuyda yumushlarga em bo'lmayaptimi?! Yo bu mayda-chuyda yumushlarda o'ziga oro topyaptimi?!

Gap kelib-kelib, bir insonning shisha qalbini sindirmaslik haqida ketyapti emasmi?! Farishta MashenKjkasini esladi ilk on Suhrob. Tanimagan singli Farrahn esladi, uning avbosh o'g'li Sanginni... Nima qilsa bularning barini baxtli qila olarkin? O'ylab-o'ylab bir jihoz kashf etdi. Zambaraksimon bu jihozni dengiz sohiliga joyladi. Ichiga singlini kirg'azib, cho'zma otgandek uni uzoq dengizga otdi. Singli ozod parvozda dengizga sho'ng'idiyu, dengiz ko'pigidan mukammal haykal bo'lib chiqdi, ilohiy Afrodita bo'lib chiqdi... Amerikaliklarga sotsammi bu jihozni? Pulga ko'madi-ku bu jihoz uni...

Ertalab qishki tarqamas g'ira-shirada uyg'onsa, tun bo'yi alahsirabdi anavi jihoz kuyida: tush bo'linsayam, jihozni qurish ishtiyoqi tun bo'yi davom etgan ekan... Kulishini ham bilmadi o'sha tong Suhrob, yig'lashini ham... Ustaxonasiga etib borgach ham tush qayg'usi tarqagani yo'q: qo'lu xayolining biror ishga borgisi kelmadi. Yana o'ziyu, o'z xayoti haqidagi o'ylarga toldi Suhrob. Shunday esa-da, biz bo'sh kelmaylik, bergan ahdimizda mustahkam turaylik: haykaltaroshlik dedikmi, uning yo'riqlariga sodiq qolaylik.

Soat o'n ikkilarmi edi, telefon jiringladi. Notanish rasmiy ovoz: "Bu Falonchi Falonchievning telefonimi?" deb so'radi. "Ha, Suhrob SurKjataliev men bo'laman", deb javob berdi Suhrob. "Sizning qaramog'ingizda Sangin SurKjataliev degan odam bo'lganmi?" deb so'radi ovoz. "Kechirasiz, men... nimaydi..." deb, mijg'ovlandi allaqanday ehtiyotkorlikmi, raddibalolikda Suhrob. Naryog'dagi ovoz qog'ozlarga ko'milgandek bo'ldi. Go'shakni tashlab, boshqa ko'tarmasamikan degan oniy xayolga bordi Suhrob. Yana bir baloga giriftor qiladi-yo'v bu bezori kelgindi... Biroq bu sukunatga chidolmay, u: "Kechirasiz, tinchlikmi o'zi?" deb so'radi. "Yo'q, gap ayni shundaki, tinchlik emas-da!" deb javob berdi iltifotsiz ovoz va zug'umida davom etdi: "Bu qanaqasi o'zi? Axir mening hamkasblaringa nima deb vaKjda bergan edingiz? O'zim qarayman, o'zim adabini beraman demaganmidingiz?!" "Kechirasiz, nima bo'ldi o'zi?!" deb toqatsizlandi Suhrob. "Aeroportdagi kazinoda o'ynashga siz pul berganmidingiz? Yutqazib, janjal ko'tarib ur-to'polon qilganida sizni otingizni..." "Nima deyapsiz?! Qanaqa pullar?!" "Siz nima, meni so'roqqa tutyapsizmi? Aksincha, azizim, men sizni so'roqqa tutishim kerak!"

Shu erda ichi shuv etib bo'shadi Suhrobning. Tizzalari titradi. Majolsizlikdan u ganch haykalning tizzasiga o'tirgan edi, haykal chirs etib sindi... Tonishdan endi foyda yo'q... "Kechirasiz, o'rtoq katta... ismi-sharifini nima dedingiz... Ha, ha, o'sha Sanginga bu pulni men uyiga qaytib ketishi uchun bergan edim... U... yaramas... ablah esa..." Shunda so'nggi kunlari gazak tortib yurgan qahr-alamini ochildi Suhrobning. Jo'shib-toshib ko'nglini yordi bu notanish ovozga. Dastlabki qutqarishi ham qolmadi, ustaxonasidagi ag'dar-to'ntaru, ularga bergan qimmatbaho shotland sviterlari, xotinidan berkitgan eng so'nggi pullariyu, bularning hech qanday qarindosh emasligi barini ag'dardi Suhrob qizigan go'shakka.

"Mening bunday qarindoshim yo'q, nima qilsangiz qilavering uni!" deb yakunladi u o'z taloshu-shikoyatini...

Qiziq, odatda rasmiylar chidamsizroq bo'lishadi, biroq bunisi Suhrobning gapini bo'lmasdan boshdan oyoq tinglab turdi. Hatto Suhrob xunibiyrongligini tugatgach ham, biroz tavozeKjlik ila sukut saqlab turdi-da, keyin: "Kechirasiz, ammo qiladigan narsamiz qolgani yo'q. Qamoqxonamizda uni bir telba taqirbosh pichoqlab qo'ydi. Jasadini olib ketasizmi, deb telefon qilayotgan edim" dedi.

Dekabrning o'sha qorsiz kechasi Suhrob MashenKjka bilan Domodedovo aeroporti tomon yo'lga chiqishgan ekan, misliki osmon haykaltaroshi sepayotgan ganchini yig'ishtirib, ishidan qo'l uzgan chog'i, men ham o'z ahdu-shashtimdan qaytdim. Qo'y, dedim o'zimga o'zim, o'z adabiyotimdan qolmay. Shafqatsiz ekan bularning kasbu-kori: toshni yo'nibmi, yog'ochning qat ketidan qat po'stlog'ini ajratibmi, o'zakmi, mag'ziga etaman degani shu bo'lsa, haykaltarosh Suhrob SurKjataliev Moskvaning qahraton tunida o'zining bebosh jiyaning muzdek qotgan jasadini sangin haykaldek qamoqdan o'lik tashuvchi mashinaga olib chiqayotganini

This is not registered version of TotalDocConverter

komil yulda ketgani. Shunda uning yul ko'rganidagi dalagan o'sha eng mutlaq haykal?! Shumidi uning intilishlariyu junbushlarining o'zagi yu mag'zi?! Yalang'och, keskir haqiqat shu ekan, deyman o'zimga o'zim, mening ham o'zimga noxos ishdagi mardikorchiligimdan chiqishim maKjqulu, o'z iliq va pahmoq to'qimalarimga o'ralganim tuzukroq emasmi? Keling, o'z yo'limda qaytadan boshlay: Suhrob SurKjatalievni do'stlari hazillashib Zurab Sereteli deb atashardi...

B† "Voy, onayni, sizlar bu erda nimaga o'r-to'polon qilyapsizlar? Bosib ketdinglaru bu erni, qora ko'tlar!"

B† "Men qarindoshlarimga pul bervormoqchiydim, o'rtoq serjant". "O'rtoq katta serjant".

B† "Pul deysanmi, qanaqa pul?! " "Shu deng ukam Toshkentga ketayotgandi, shunga pul..." "O'v, onayni, san hali bu erda kontrabanda bilan shug'ullanyapsanmi? Hali nasha uchun to'layotgan bo'lmagin?"

B† "Sen, onayni, huquqni saqlash organlarini poraga olmoqchimisana... xizmat chog'idaya... bilasanmi senga nima bo'ladi?!"

B† "Nachalniy, ke o'zaro gaplashiyluv"